



N. Mamasoliyeva

Toshkent davlat agrar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy til va milliy manfaat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, o'zbek tilining shakllanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari hamda bugungi kunda davlat tili sifatidagi o'rni keng yoritilgan. Maqolada Eski o'zbek tili (yoki chig'atoy tili)ning ildizlari qadimgi turkiy tilga borib taqalishi, uning XI–XIX asrlarda yozma adabiy til sifatida shakllanib, Alisher Navoiy davrida eng yuksak pog'onaga ko'tarilgani haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek, asarda o'zbek adabiy tilining milliy o'zlikni anglash, madaniyat va ma'naviyatni asrab-avaylashdagi ahamiyati tahlil etilgan. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, til siyosati sohasidagi islohotlar va Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan sa'y-harakatlar tilimiz nufuzini oshirish yo'lidagi muhim bosqich sifatida baholanadi.

Muallif tilni millatning ma'naviy boyligi, birlashtiruvchi kuchi deb e'tirof etib, uni asrash va rivojlantirish har bir fuqaroning burchi ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, globalizatsiya davrida ona tilining sofligini saqlash, zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobillarini yaratish, yosh avlodga tilga hurmat va e'tiborni shakllantirish zarurligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Eski o'zbek tili, Alisher Navoiy, milliy til, Davlat tili, milliy manfaat, ona tili, til siyosati, globallashuv.

Аннотация: В данной статье широко освещается неразрывная связь между национальным языком и национальными интересами, история формирования узбекского языка, этапы его развития, а также его современная роль как государственного языка. В статье отмечается, что истоки древнеузбекского языка (или чагатайского языка) восходят к древнетюркскому языку, и что в XI–XIX веках он сформировался как письменный литературный язык, достигнув наивысшего расцвета в эпоху Алишера Навои. Кроме того, в работе анализируется значение узбекского литературного языка в осознании национальной идентичности, сохранении культуры и духовных ценностей. Придание узбекскому языку статуса государственного в годы независимости, реформы в сфере языковой политики, а также усилия, предпринимаемые под руководством Президента Шавката Мирзиёева, оцениваются как важный этап на пути повышения авторитета государственного языка. Автор рассматривает язык как духовное богатство нации и объединяющую силу, подчёркивая, что его сохранение и развитие является гражданским долгом каждого человека. Также отмечается необходимость сохранения чистоты родного языка в условиях глобализации, создания узбекских эквивалентов современных терминов и





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

формирования у молодого поколения уважительного отношения и внимания к родному языку.

Ключевые слова: древнеузбекский язык, Алишер Навои, национальный язык, государственный язык, национальные интересы, родной язык, языковая политика, глобализация.


Abstract: *This article comprehensively examines the inseparable relationship between the national language and national interests, the history of the formation of the Uzbek language, the stages of its development, and its current role as the state language. The article notes that the roots of the Old Uzbek language (or Chagatai language) trace back to the Ancient Turkic language, and that between the 11th and 19th centuries it was formed as a written literary language, reaching its highest level of development during the era of Alisher Navoi. In addition, the article analyzes the importance of the Uzbek literary language in shaping national identity and preserving cultural and spiritual values. The granting of state language status to the Uzbek language during the years of independence, reforms in the field of language policy, and the efforts carried out under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev are assessed as a significant stage in enhancing the prestige and authority of the state language. The author regards language as the spiritual wealth of the nation and a unifying force, emphasizing that its preservation and development are the civic duty of every citizen. Furthermore, the article highlights the necessity of maintaining the purity of the mother tongue in the era of globalization, creating Uzbek equivalents for modern terminology, and fostering respect and attention toward the native language among the younger generation.*

Keywords: Old Uzbek language, Alisher Navoi, national language, state language, national interests, mother tongue, language policy, globalization.

Eski o‘zbek tili - turkiy tillar dasht qarluq guruhiga mansub tillardan biri; mahalliy turkiy lahjalar negizida o‘zidan oldingi davrlar (mas, qoraxoniylar – XI-XII asrlar; Oltin O‘rda – XIII-XIV asrlar)ning adabiy lisoniy an‘analari ta’siri ostida shakllangan va XIV asr II yarmidan XIX asr oxirlarigacha mavjud bo‘lgan yozma kitobiy til.

O‘zbek tili tarixini davrlashtirish va bunda Eski o‘zbek tilining o‘rni va qaysi davr (yillar)ni qamrab olishi haqida yagona fikr mavjud emas. O‘zbek tili tarixini davrlashtirish bo‘yicha rus olimlaridan S.YE.Malov, P.M.Melioranskiy, A.N. Samoylovich, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, venger olimi Ya.Ekman, o‘zbek olimlaridan O.Usmonov, G‘.Abdurahmonov, U.Tursunov bilan B. O‘rinboyev, A.Muxtorov bilan U.Sanaqulov va boshqalarning tadqiqotlari mavjud (ularning ba’zilarida «Eski o‘zbek tili» termini o‘rnida «turkiy», «chig‘atoy tili», «O‘rta Osiyo turkiy adabiy tili» terminlari qo‘llangan).

Eski o‘zbek tili qadimgi turkiy tilning bevosita davomi va hozirgi o‘zbek tilining asosi hisoblanadi. Ayrim ilmiy manbalarda «chig‘atoy tili» deb ham ataladi, ammo Eski o‘zbek tilining Chig‘atoyga, mo‘g‘ullarga hech qanday aloqasi yo‘q, buning ustiga o‘sha davr





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yozuvchi va shoirlari o'z tillarini turkiy (til) deb nomlaganlar. Qarluq, o'g'uz, qipchoq guruhlariga mansub turkiy tillar o'rtasidagi mintaqaviy variantlashuv (o'zgarishlar) va jadal, samarali aloqa

munosabatlar tufayli kelib chiqqan turli lahjaviy shakllarni o'z ichiga olgan Eski o'zbek tili umumlahjaviy (barcha lahjalar uchun umumiy) xususiyatga ega bo'ladi. Bu xususiyat ko'plab arabcha, forscha o'zlashmalar, shuningdek, arab grafikasining qo'llanishi oqibatida yanada chuqurlashadi, murakkablashadi. Buning natijasida Eski o'zbek tili dagi asarlar Bosfordan Oltoy va Hindistongacha cho'zilgan hududda yashovchi turkiyzabon xalqlar tomonidan keng o'qiladigan bo'lgan. Shuni aytish kerakki, arabcha, forscha so'z va iboralarning ko'plab qo'llanishi va uslubiy vositalar sababli kitobiy til jonli tildan jiddiy farq qilgan. Yozma adabiyotning kam tarqalganligi tufayli lahja xususiyatlari saqlanib qolgan. Bunday xususiyatlar adabiy asarlarda ham ma'lum darajada o'z aksini topgan. Farg'ona va Movarounnahrda yozilgan adabiy asarlar tili bilan Xorazmda yozilgan adabiy asarlar tili urtasida ma'lum lahjaviy farqlar sezilib turgan.

Eski o'zbek tilining ilk shakllanish davrida (XII-XIII) bu narsa yaqqol ko'rinar edi, keyinchalik esa bunday lahjaviy xususiyatlar aralashib ketadi. Mas, Xorazmiyning «Muhabbatnoma» va Said Ahmadning «Taashshuqnoma» asarlarida o'g'uz lahjasi xususiyatlari, Qutbning «Xusrav va Shirin» asarida qipchoq lahjasi xususiyati o'z aksini topgan bo'lsa, XYI asrga oid «Boburnoma»da qarluq, o'g'uz va qipchoq lahjalarining xususiyatlari aralash hodda qo'llangan. Shu tariqa lahja xususiyatlari astasekin yo'qola borib, XY-XYI asrlarda yagona, umumiy adabiy til xususiyatlari asosiy o'rinni egallaydi. Eski o'zbek adabiy tili ancha keng hududga yoyilib, uning barqarorlashgan me'yorlari asosida yozuvchi va shoirlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha ijod qilib keldilar.

Eski o'zbek tili Alisher Navoiy davrida, uning asarlarida o'z rivojining eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shoir o'zining o'nlab nazmiy va nasriy asarlari bilan bu tilni kamolotga yetkazdi, uni davlat tili darajasiga olib chiqishga harakat qildi. U nafaqat o'sha va keyingi davrlar o'zbek adabiy tilining asoschisi, rivojlantiruvchisi, balki tadqiqotchisi hamdir. Navoiy o'zining «Muhokamat ulla'g'atayn» asarida Eski o'zbek tili (turkiy)ni fors tiliga qiyoslash asosida uning fonetik, leksik va grammatik sohalarda rivojlangan til ekanligini nazariy jihatdan asoslab, ko'rsatib beradi.

Boburning nasriy asari «Boburnoma» Navoiyning nasriy asarlaridan tilining ancha soddaligi, jonli tilga yaqinligi bilan hatto hoz. zamon o'quvchisiga ham tushunarlidir. Alisher Navoiydan keyin yaratilgan nasriy asarlar va ayrim dostonlarda Eski o'zbek tilining an'anaviy me'yorlaridan bir oz uzoqlashish, uni xalq tiliga yaqinlashtirish tamoyili kuzatiladi. Ko'plab she'riy asarlarda, g'azallarda esa eski o'zbek adabiy tili an'analari davom etadi. XIX asrning II-yarmiga kelib nasriy asarlarga emas, nazmiy asarlar ham jonli tilga yaqinlashadi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqalar shoirlarning asarlari ana shular jumlasidandir.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ayni shu davr, ya'ni XIX asr oxiri – XX asr boshlari eski o'zbek adabiy tilidan hoz. o'zbek adabiy tiliga o'tish bosqichi hisoblanadi.

Agar til madaniyat ko'zgusi bo'lsa, xalqning moddiy, ma'naviy va madaniy saviyasi, birinchi navbatda, uning tilida namoyon bo'ladi. O'zbeklar o'z tillarida (bir necha alifboda) juda ko'p badiiy, tarixiy-filologik, jug'rofiy va boshqa yozuv yodgorliklarini yaratganlarki, ular o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. O'zbek xalqi madaniyati tarixi taraqqiyotida o'zbek adabiy tili ulkan rol o'ynagan. O'zbek (turkiy) tilida davrlar osha yozilgan badiiy, tarixiy, ilmiy yodgorliklar umumxalq tilining eng yaxshi xususiyatlarini o'zida saqlagan bo'lib, xalqimizning qadimgi madaniyatini aks ettirgan obidalar ham hisoblanadi.

Bizgacha etib kelgan obidalarni kuzatish orqali xalqimiz tarixi va tilimiz tarixiy taraqqiyotiga oid ko'pgina qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. XI–XIV asrlarda yaratilgan asarlarning ko'pchiligi turkiy xalqlarning mushtarak merosidir. Bunga Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", "Nahjul Farodis", "Me'rojnom" kabi asarlarni ko'rsatish mumkin.

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotining barcha yo'llari bilan uzluksiz bog'langan. Shunday ekan, til har bir millat madaniyatining o'zagi bo'lib, tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'analarini saqlaydi. Bosh Qomusimizning 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir», deb belgilab qo'yilgan.

YuNESKO ma'lumotiga ko'ra, xozirgi kunda dunyoda 6 ming 909 til mavjud bo'lib, ulardan 200 ga yaqini davlat tili maqomiga ega. Ular orasida ona tilimiz-o'zbek tilining ham borligi qalbimizni faxr-iftixorga to'ldiradi. Inson qalbiga jamiki ezgu fazilatlar ona allasi, ona tilining betakror jozibasi orqali singadi. O'zlikni anglash, milliy ong va qadriyatlar, avlodlarni bir-biriga ruhiy va ma'naviy jihatdan bog'lovchi vosita bu tildir.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin", dedi Prezident Shavkat Miromonovich.

So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomiz "Ko'ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so'z bil". Ya'ni inson qalbining xazinasining kaliti so'zdir, deganlarida tilning nainki muloqot, balki dillarni bog'lovchi vosita ekanligiga e'tibor qaratgan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. 1470 yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan shehrlaridan iborat ilk devoni – "Badoe' ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi")ni tuzdi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

1989 yilda qabul qilingan qonunga asosan o'zbek tili O'zbekiston Respublikasida yagona davlat tili sifatida tan olindi. 1995-yil 21-dekabrda qonun yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risidagi qonuni qabul qilingan kunni bayram etib nishonlash to'g'risida 2020-yil 23-martda Oliy Majlis qonunchilik palatasining qonuni qabul qilindi. Shunday ekan o'zbek adabiy tilni asrash va uni rivojlantirish har birimizning burchimiz. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va bu davlatimizning Asosiy Qonunida mustahkamlab qo'yilishi xalqimiz tarixida buyuk voqea bo'lganligi shubhasiz. O'zbek tili davlatimiz ramzlari qatorida turadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi, bu timsolga ehtirom ko'rsatishni yurtimizdagi, millatidan qat'iy nazar, barcha kishilar o'zlarining fuqarolik burchi deb biladi. Ayni paytda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tillari va milliy qadriyatlarining rivoji uchun tegishli sharoitlar yaratilgan.

Til-millat qiyofasi, ma'naviy boyligimiz timsoli. Til tufayli xalq va elatlarning madaniy urf –odatlarini saqlanib qoladi. Qachonki bolalar o'z ona tillarida o'qishni to'xtatar ekan, o'sha til yo'qolish sari yuz tutadi. Tillarni saqlab qolish bu o'sha xalqning madaniyati, urf –odati, rasm-rusumlarining boqiyiligini anglatadi.

Yoshlarimiz bugungi kunda o'z ona tilimiz bilan bir qatorda ko'plab chet tillarni ham o'rganmoqda. Globalashuv davrida milliy tilimizning sofligini asrash, uning lug'aviy boyligini oshirish, turli sohalarda tilimizga chet tillardan kirib kelayotgan atamalarning o'zbekcha muqobillarini yaratish va iste'molga kiritish vazifalari turibdi.

Mamlakatimizning ta'lim-tarbiya muassasalarida turk, ingliz, xitoy, rus, yapon, koreys, nemis, ispan, frantsuz, arab va hind tillari o'rganilmoqda. Yoshlarimiz chet tillarini yaxshi bilishi ularning kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Lekin har bir yigit-qiz avvalo, o'z ona tilini mukammal bilishi va uni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishi lozim. Demak xalqimizga tilimizning boyligi va go'zalligini uqtira bilish har birimizning vazifamizdir. Biz tilni asrash uchun, uni rivojlantirish uchun avvalo yoshlarimizda, rahbaru fuqaroda o'zlikni anglash ruhini shakllantirishimiz, ularga o'zbek tilini tanitishimiz va sevdira olishimiz darkor.

Ma'lumki, bugungi kunda ingliz tili xalqaro muloqot tillarining asosiylaridan biri hisoblanadi. U hayotimizning har bir jabhasiga kirib borgan va siyosiy hamda iqtisodiy masalalarni hal etishni osonlashtiradi, desak adashmagan bo'lamiz. Biroq har bir mamlakat o'z tilini saqlab qolishga harakat qilishi kerak, chunki aynan til uni o'ziga xos qiladi va boshqa mamlakatlardan ajratib turadi.

Davlatimiz rahbari "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat", ekanini alohida ta'kidlab o'tgandi. Darhaqiqat, til –millat tafakkurining bebaho mahzani, ulkan boyligi sifatida ijtimoiy hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Dunyo tillarini saqlab qolish, madaniy, intellektual merosning yo‘q bo‘lib ketish xavfining oldini olish maqsadida BMTning Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YuNESKO) tomonidan 1999-yil noyabrda “21-fevral – Xalqaro ona tili kuni”, deb e‘lon qilingan. Mazkur sana dunyoda tillarga bo‘lgan e‘tibor va hurmatning ramziy ma‘nosini ifodalab keladi. Quvonarlisi, yurtimizda davlat tiliga bo‘lgan e‘tibor har qachongidanda kuchaydi. Bugun ona tilimizni ulug‘lash, uning boy xazinasini, tarovati va nafosatini yosh avlodga etkazish maqsadida yurtimizda atoqli shoir va adiblarimiz nomlaridagi ijod maktablari tashkil etildi. Muhammad Rizo Ogahiy, Is‘hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Halima Xudoyberdieva, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablarida saboq olgan yoshlar o‘zbek tili va adabiyoti, badiiy ijod sirlarini chuqur o‘rganishi sir emas. Buning uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Tarixga yuzlanadigan bo‘lsak, taassufki, mustabid tuzum davrida millat ruhi, g‘ururi bo‘lmish o‘zbek tilining mavqeini pasaytirishga urinishlar ko‘p bo‘ldi. Millat oydini, ma‘rifatparvar adib Abdulla Qodiriy “O‘zbek tili kambag‘al til emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”, degan xitobi bilan o‘tmishning achchiq sitamlarini namoyon etdi. Sobiq ittifoq davrida ona tiliga bo‘lgan bepisandlikka qaramay, xalqimiz o‘z milliy tilini saqlab qoldi.

1989-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, o‘zbek tili davlat tili, deb e‘lon qilindi. Mazkur tarixiy sanadan o‘ttiz yil o‘tib, ona tilimizni e‘zozlash yangi bosqichga ko‘tarildi.

Prezidentimizning 2019-yil 4-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori hamda 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni buning yorqin dalilidir. Farmonga binoan 21-oktyabr yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni”, deb e‘lon qilindi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tuzilmasining tashkil etilgani o‘zbek tilining nufuzini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi, sohaga oid muammolarni tahlil etib, bu borada yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta‘minlash uchun xizmat qilishi shubhasiz. Bundan tashqari, ona tilimizning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish, uni ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va qo‘llanish doirasini kengaytirish, filolog kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni yangi pog‘onaga ko‘tarish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. Bu esa ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho ma‘naviy merosni kelajak avlodga etkazish, uni asrab-avaylash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Yana bir jihatga to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Fan-texnika rivojlanib, ilmiy atamalar ko‘paygani sari milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta‘minlash dolzarb vazifaga aylandi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Shu maqsadda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqoridagi farmonga muvofiq, yangi soʻz va atamalarni rasmiy isteʼmolga kiritish borasidagi ishlarni tartibga soladigan Atamalar komissiyasini tuzish masalasi kun tartibiga qoʻyildi. Ayniqsa, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk marta oʻzbek tilida nutq soʻzlashi ona tilimizning nufuzi va mavqeini yanada oshirdi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan “Navoiy tili” deb eʼtirof etiladigan ona tilimizning jahonda eʼtirof etilishi nihoyatda katta va muhim tarixiy voqelik boʻldi. Bu har bir yurtdoshimiz koʻnglida gʻurur-iftixor tuygʻusini yanada oshirdi.

Shu oʻrinda maʼrifatparvar bobomiz Alixontoʻra Sogʻuniyning quyidagi fikrlari eʼtiborga molik: “Qaysi bir millatning ona tili oʻz hojatini oʻtayolmay, boshqa yot tillar oldida magʻlubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat koʻp uzoqlamay, insoniy tuygʻularidan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolgʻizgina Vatanlaridan emas, balki butun borligʻi bilan tarix yuzidan yoʻqolishga majbur boʻladi”. Zero, Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek, “Har birimiz davlat tiliga boʻlgan eʼtiborni mustaqillikka boʻlgan eʼtibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim”. Chunki yillar oʻtib, qaysi yurtning farzandlari oʻz ona tillarida oʻqishni toʻxtatsa, oʻsha til yoʻqlik qaʼriga singib ketadi. Shu sababli ham tilning yot taʼsirlardan saqlash xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Ona tili xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, oʻqitadi, urf-odat, anʼanalarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qoʻshishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak. Zero, til bor ekan, millat barhayotdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov A., Oʻzbek tilining kelib chiqish tarixi. Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti, 2019.
2. O.U.Shukurov. Oʻzbek tili zamonaviy oʻzlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (mustaqillik davri) Filologiya fanlari doktori (DSC) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.2022.
3. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Oʻqituvchi, 1998. 34-41 bet.
4. Raxmonov N., Sodiqov Q. Oʻzbek tili tarixi. Darslik. –T.: Oʻzbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati.Toshkent, 2002.

